

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc/03/29.12.2022.Ss/Tar.21.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

SAYFULLAYEV BEHRUZ DILSHOD O‘G‘LI

**O‘ZBEKISTON – HINDISTON MUNOSABATLARINING
SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH TARIXI (1991-2021 YY.)**

07.00.05 – Xalqaro munosabatlar va tashqi siyosat tarixi

**TARIX FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

UO‘K :327(575.1)+(540):94(5)

КБК:66.4(5Uzb)(5Hin):63.3-6

S-28

Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата доктора философии (PhD)

по историческим наукам

Contents of the Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD)

in Historical Science

Sayfullayev Behruz Dilshod o‘g‘li

О‘zbekiston-Hindiston munosabatlarining shakllanishi va rivojlanish tarixi (1991-2021yу)..... 3

Сайфуллаев Бехруз Дилшод ўғли

История становления и развития отношений между Узбекистаном и Индией (1991-2021гг)..... 29

Sayfullayev Behruz Dilshod ugli

History of formation and development of relations between Uzbekistan and India (1991-2021)..... 57

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 61

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc/03/29.12.2022.Ss/Tar.21.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

SAYFULLAYEV BEHRUZ DILSHOD O‘G‘LI

**O‘ZBEKISTON – HINDISTON MUNOSABATLARINING
SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH TARIXI (1991-2021 YY.)**

07.00.05 – Xalqaro munosabatlar va tashqi siyosat tarixi

**TARIX FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Tarix fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida № B2022.4.PhD/Tar1281 raqam bilan ro'yxatga olingan

Dissertatsiya Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengash veb- sahifasi (www.tsuos.uz) hamda «ZiyoNet» axborot-ta'lim portaliga (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Sayfullayev Durbek Baxtiyorovich tarix fanlar doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	Rahimov Mirzohid Akromovich tarix fanlar doktori, professor Nayimov Otabek Mardonovich siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Yetakchi tashkilot:	O'zbekiston milliy universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti huzuridagi DSc/03/29.12.2022.Ss/Tar.21.02 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil «___»_____soat _____dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100047, Toshkent sh., Shahrisabz ko'chasi, 16. Tel.: (99871) 233-34-24; faks: (998971) 233-52-24; e-mail: sharq_ilmiy@mail.ru.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100047, Toshkent sh., Shahrisabz ko'chasi, 16. Tel.: (99871) 233-45-21.

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «___»_____kuni tarqatildi.
(2023-yil «___»_____dagi _raqamli reestr bayonnomasi).

N.A.Abdullayev,
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi o'rinbosari,
s. f. d., dotsent

O.I.Alimov,
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash kotibi,
siyosiy fanlar bo'yicha
falsafa doktori (PhD)

N.E.Karimova,
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, t. f. d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Zamonaviy xalqaro munosabatlarda sodir bo'layotgan tub o'zgarishlar tashqi siyosatni uzoqni ko'zlagan holda olib borishni, xalqaro aloqalar geografiyasini kengaytirishni va an'anaviy hamkorlar bilan aloqalar ko'lamini yanada rivojlantirishni taqozo etmoqda. O'zbekistonning Janubiy Osiyo, jumladan Hindiston bilan mavjud aloqalarini yanada kengaytirish, yangi va istiqbolli yo'nalishlarda o'zaro manfaatli hamkorlikni yo'lga qo'yish, keng mintaqalarni bog'lovchi va O'zbekistonni jahon bozoriga chiqishiga imkon yaratuvchi transport-logistika yo'laklarini shakllantirishga qaratilgan tashqi siyosat strategiyasining ustuvor maqsadlari bugungi kunda dolzarb hisoblanadi.

Hindiston xalqaro munosabatlar tizimidagi muhim aktoarlardan biri sifatida rivojlangan siyosiy, iqtisodiy va harbiy salohiyatga ega bo'lishi va bu taraqqiyotning asosiy modelini aniqlash ilmiy-tadqiqot institutlarining diqqat-e'tibori va qiziqishiga sabab bo'lmoqda. Shu jihatdan, O'zbekiston va Hindiston o'rtasidagi siyosiy, savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar munosabatlarning shakllanish va rivojlanish jarayonlarini retrospektiv va perspektiv yondashuvlar asosida tadqiq etish so'nggi yillarda ilmiy tadqiqotlarning obyektiga aylanib bormoqda.

Mustaqillikdan hozirgi vaqtgacha O'zbekiston Hindiston bilan o'zaro manfaatli hamkorlik aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. "Bugun Hindiston — jadal rivojlanib, jahon iqtisodiyotidagi o'rnini mustahkamlab borayotgan global davlat. So'nggi to'rt yilda bu davlat bilan ikki tomonlama munosabatlar yangi bosqichga chiqdi"¹. Hindistondan qudratli mamlakat bilan rivojlanayotgan munosabatlar global jarayonlar va dunyo "tarixiy evrilish" pallasiga kirib borayotgan yangi davrda juda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu mamlakatimizga bir yarim milliard aholiga ega bo'lgan Janubiy Osiyo bozoriga kirib borish, shuningdek fan, ta'lim, tibbiyot, qishloq xo'jaligi va AKT sohasida jadal rivojlanayotgan Hindiston tajribalarini va investitsiyasini jalb qilish imkonini taqdim etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son, 2023 yilning 11 sentabridagi "O'zbekiston – 2030 strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son, 2017 yil 19 mayda qabul qilingan "Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5046-son farmonlari hamda 2017 yil 30 iyundagi "O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzurida O'zbekistonning eng yangi tarixi bo'yicha Jamoatchilik kengashi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-3105-son, 2020 yil 16 apreldagi "Sharqshunoslik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va

¹ Мирзиёев Ш. Ўзбекистон ва Ҳиндистон муносабатларининг бугунги суръатини юқори баҳолаймиз.[Ўзбекистон Республикаси Президентининг расмий веб-сайти]: [https://president.uz/uz/lists/view/2055.\(18.12.2020\)](https://president.uz/uz/lists/view/2055.(18.12.2020)).

ilmiy salohiyatni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–4680-son, 2018 yil 4 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi bilan Hindiston Respublikasi o‘rtasidagi strategik sheriklikni yanada kengaytirish va mustahkamlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–3958-son qarorlari hamda sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarning bajarilishiga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur dissertatsiya respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning I.“Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Zamonaviy munosabatlarda xalqaro tashkilotlar va xorijiy mamlakatlar bilan aloqalar tarixini tadqiq etish O‘zbekistonning eng yangi tarixini yaratish nuqtai nazardan dolzarb ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston va Hindiston munosabatlariga bag‘ishlangan tadqiqotlar tarixshunosligi, jumladan, ikki davlat o‘rtasidagi diplomatik aloqalarning tarixi, ularning rivojlanib borish tendensiyalari, munosabatlarning savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar jihatlariga bag‘ishlangan tadqiqotlar dissertatsiyaning 1.1. bo‘limida alohida tahlil etilgan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining 10-raqamli “Sharq mamlakatlarida kechayotgan ijtimoiy siyosiy jarayonlarning o‘ziga xos xususiyatlari va ularning xalqaro munosabatlarga ta’siri”, A-1-191 raqamli “Xorijiy tillarda tarixiy asarlarning ilmiy tadqiqi va tanqidiy tahlili asosida Sharq mamlakatlari tarixiga oid zamonaviy o‘quv adabiyotlarini yaratish” mavzularidagi loyihalar doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi O‘zbekistonning Hindiston Respublikasi bilan diplomatik, savdo-iqtisodiy, madaniy-gumanitar aloqalari yo‘lga qo‘yilishi va 1991–2021-yillar davomida rivojlanishi tarixini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

O‘zbekiston–Hindiston munosabatlari tadqiq qilingan ilmiy izlanishlarni o‘rganish va tahlil qilish;

O‘zbekistonning Hindiston bilan diplomatik aloqalari yo‘lga qo‘yilishi va yangi formatda rivojlanishiga asos bo‘lgan hamkorlikning tashkiliy-huquqiy asoslarini ochib berish;

ikki davlat o‘rtasida o‘zaro manfaatli va samarali savdo-iqtisodiy aloqalar yo‘lga qo‘yilishi va ularning rivojlanish bosqichlarini tadqiq etish;

O‘zbekiston–Hindiston aloqalarining Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik va barqarorlikni ta’minlashdagi o‘rnini yoritish;

tadqiq etilayotgan davr doirasida ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarning madaniy-gumanitar jihatlarini va o'zaro aloqalarni mustahkamlashga xizmat qilganligini ko'rsatish;

tadqiq etilayotgan mavzu borasida zaruriy xulosalarni hamda ikki davlat o'rtasidagi aloqalarni yanada mustahkamlashga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyektini 1991–2021-yillarda O'zbekiston va Hindiston o'rtasidagi ikki va ko'p tomonlama strategik hamkorlik munosabatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning predmetini esa O'zbekistonning yangi tarixida O'zbekiston Respublikasining Hindiston bilan siyosiy, savdo-iqtisodiy, madaniy-gumanitar sohalaridagi aloqalari va ularning rivojlanish tendensiyalari, shuningdek, Markaziy Osiyoda mintaqaviy va global xavfsizlikni ta'minlash borasidagi hamkorligining xususiyatlari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda tarixiylik prinsipi, tizimlashtirish va tizimli-xronologik tahlil, kompleks va fanlararo yondashuv, muammoviy-xronologik, intervyu usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

O'zbekiston va Hindiston munosabatlarining birinchi bosqichi asosan ikki tomonlama aloqalar doirasida yo'lga qo'yilganligi (1991-2016 yy), ikkinchi bosqichi sifatida "Markaziy Osiyo-Hindiston" sammiti va Shanxay hamkorlik tashkiloti doirasidagi ko'p tomonlama hamkorlik formatida rivojlanib borayotganligi (2017-2021 yy) ochib berilgan;

O'zbekiston va Hindiston o'rtasidagi savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy aloqalarning rivojlanishiga to'siq bo'layotgan geografik omilning ta'sirini e'tiborga olgan holda, O'zbekistonning Xalqaro Shimol-Janub transport koridoriga (INSTC) a'zo bo'lish imkoniyatlari va zaruriyati ikki tomonlama milliy manfaatlardan kelib chiqishi asoslangan;

Davlatlar o'rtasida madaniy diplomatiya va xalq diplomatiyasi yo'nalishidagi madaniy-gumanitar aloqalarning rivojlanishida milliy madaniy markazlar hamda do'stlik jamiyatlari ishtirokining muhimligi "O'zbekiston-Hindiston", "Hindiston-O'zbekiston" do'stlik jamiyatlari, O'zbekistonda faoliyat yuritib kelayotgan Hind madaniyat markazining faoliyati natijalari bilan ochib berilgan;

O'zbekistonda saqlanib qolgan buddaviylik dini yodgorliklarining hindistonlik sayyohlar uchun istiqbolli ziyorat turizmi maskanlariga aylanishi imkoniyatlarini hisobga olgan holda, Surxondaryoning Qoratepa, Ayritom, Dalvarzintepa, Fayoztepalarda gastronomik va eko turizmni tashkil qilish kelgusidagi hamkorlik sur'atlariga ijobiy ta'sir etishi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

O'zbekistonning Hindiston bilan munosabatlarini tadqiq etish jarayonida O'zbekiston Respublikasining Milliy arxivi va tegishli tashkilotlarning joriy arxivlaridan olingan ma'lumotlar tizimlashtirilib, ilmiy muomalaga kiritilgan;

O‘zbekistonning Hindiston bilan diplomatik aloqalarini ilmiy jihatdan yoritish asosida ta’lim jarayonida qo‘llanishi mumkin bo‘lgan nazariy-metodologik jihatlar aniqlangan;

O‘zbekiston Respublikasining Hindiston bilan strategik sheriklikka asoslanuvchi ikki va ko‘p tomonlama hamkorligini rivojlantirish bo‘yicha amaliy tavsiya va takliflar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi dissertatsiyani yozishda hozirgi zamon tarix fanida e’tirof etilgan yondashuv va usullar qo‘llanilgani, davlat tashqi siyosatiga oid normativ hujjatlar hamda joriy arxiv manbalariga asoslanilgani, shu yo‘nalishdagi ilmiy tadqiqotlar, davriy matbuot va internet nashrlarida e’lon qilingan ma’lumotlardan foydalanilgani, xulosa, taklif va tavsiyalar amaliyotda joriy etilgani hamda olingan natijalar vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, tadqiqotda keltirilgan fikr-mulohazalar va ilmiy xulosalardan O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy faoliyatiga oid istiqbolli yo‘l xaritalari ishlab chiqilishida, respublikamizning tashqi siyosati tarixiga doir yangi darsliklar va o‘quv qo‘llanmalarining umumnazariy jihatlarini kengaytirishda, mavzu yuzasidan yangi ilmiy tadqiqotlar o‘tkazishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining *amaliy ahamiyati* esa ularning mamlakat tashqi siyosatiga tegishli tahliliy ma’lumotlar tayyorlashda, sharqshunos va xalqaro munosabatlar sohasi uchun professional mutaxassislar tayyorlash borasida “Xalqaro munosabatlar”, “Sharq mamlakatlarining xalqaro munosabatlari”, “O‘zbekistonning eng yangi tarixi” fanlarini o‘qitishda hamda tegishli yo‘nalishdagi tadqiqot ishlarini bajarishda manba sifatida xizmat bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O‘zbekiston va Hindiston o‘rtasidagi munosabatlarning shakllanish va rivojlanish tarixini tadqiq etish natijasida ishlab chiqilgan ilmiy xulosa va takliflar asosida:

O‘zbekiston va Hindiston munosabatlarning birinchi bosqichi (1991-2016 yy) ikki tomonlama aloqalar doirasida yo‘lga qo‘yilganligi, ikkinchi bosqichi sifatida “Markaziy Osiyo-Hindiston” sammiti va Shanxay hamkorlik tashkiloti doirasidagi ko‘p tomonlama hamkorlik formatida rivojlanib borayotganligi (2017-2021 yy) borasida olingan ilmiy xulosalardan O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tomonidan axborot-tahliliy hujjatlar tayyorlashda foydalanilgan. (Tashqi ishlar vazirligining 2023-yil 29-sentabrdagi 18/3438535-son ma’lumotnomasi). Natija sohaga oid axborot-tahliliy bazani takomillashtirishga va amalda qo‘llashga xizmat qilgan;

O‘zbekiston va Hindiston o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy aloqalarning rivojlanishiga to‘siq bo‘layotgan geografik omillar hamda O‘zbekistonning Xalqaro Shimol-Janub transport koridoriga (INSTC) a‘zo bo‘lish zaruriyati va imkoniyatlari to‘g‘risidagi olingan ilmiy xulosalardan

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta-maxsus ta’lim vazirining 2022-yil 17-martdagi 106-son buyrug‘iga asosan nashr etilgan “O‘zbekistonning eng yangi tarixi” darsligi yaratishda foydalanilgan (ro‘yxatga olish raqami 106-042). Tadqiqot natijalari “O‘zbekistonning eng yangi tarixi” darsligining 4-bo‘limidagi “O‘zbekistonning Osiyo mamlakatlari bilan o‘zaro manfaatli aloqalari” nomli 12-mavzuni yozishda materialni yangi ma’lumotlar bilan boyitishga xizmat qilgan;

Davlatlar o‘rtasida madaniy diplomatiya va xalq diplomatiyasi yo‘nalishidagi madaniy-gumanitar aloqalarning rivojlanishida milliy madaniy markazlar hamda do‘stlik jamiyatlari ishtirokining muhimligi “O‘zbekiston-Hindiston”, “Hindiston-O‘zbekiston” do‘stlik jamiyatlari, O‘zbekistonda faoliyat yuritib kelayotgan Hind madaniyat markazining faoliyati natijalari borasidagi olingan ilmiy xulosalardan Dehli universitetining Tarix, Siyosatshunoslik kafedralarida tahsil olayotgan talabalariga hind-o‘zbek ilmiy-madaniy aloqalari doirasida tashkillashtirilib kelingan xalqaro konferensiya va nazariy dars jarayonlarida foydalanilgan (Hindiston Respublikasi Dehli universitetining 2023-yil 25-yanvardagi ma’lumotnomasi). Tadqiqot natijalarining amaliyotga tatbiq etilishi Dehli universitetida o‘quv kurslarini samarali tashkil etishda metodologik asos bo‘lib xizmat qilgan;

O‘zbekistonda saqlanib qolgan buddaviylik dini yodgorliklarining hindistonlik sayyohlar uchun istiqbolli ziyorat turizmi maskanlariga aylanishi imkoniyatlarini hisobga olgan holda, Surxondaryoning Qoratepa, Ayritom, Dalvarzintepa, Fayoztepalarda gastronomik va eko turizmni tashkil qilish kelgusidagi hamkorlik sur‘atlariga ijobiy ta’sir etishiga oid nazariy va amaliy tavsiyalar O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining “O‘zbekiston tarixi” telekanalida efirga uzatilgan “Ochiq dars” ko‘rsatuvida taqdim etildi (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston tarixi” telekanalining 2022-yil 3-avgustdagi 06-28-1235-raqamli ma’lumotnomasi). Ushbu ko‘rsatuv O‘zbekistonning Hindiston bilan strategik darajada amalga oshirib kelinayotgan siyosiy, savdo-iqtisodiy, fan-ta’lim, sog‘liqni saqlash sohalaridagi hamkorlikning mazmun-mohiyatini aholiga xolisona yetkazishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari oltita ilmiy anjumanda, jumladan, uchta respublika miqyosidagi va uchta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyada muhokama qilinib ma’qullangan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 15 ta maqola, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda sakkizta maqola (ulardan 6 tasi respublika va 2 tasi chet el jurnallarida) nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Tadqiqot kirish, yettita paragrafni o‘z ichiga olgan uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat bo‘lib, ishning tadqiqot qismi 138 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan; tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti belgilab olingan; tadqiqotning fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarga mosligi, amaliy natijalari va ilmiy yangiligi ko‘rsatilgan; olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan; tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, aprotatsiyasi hamda dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“O‘zbekiston–Hindiston munosabatlari tarixining ilmiy tadqiqi va diplomatik aloqalarining shakllanish jarayonlari”** deb nomlangan birinchi bobida O‘zbekiston–Hindiston munosabatlari tarixini tadqiq etishning nazariy jihatlari, ikki davlat o‘rtasidagi diplomatik aloqalarning huquqiy asoslari, shuningdek, O‘zbekiston–Hindiston munosabatlari tarixining yangi bosqichida rivojlanishi tahlil qilingan.

Tadqiqotning *“O‘zbekiston–Hindiston munosabatlari tarixiga doir ilmiy tadqiqotlar tahlili”* deb nomlangan birinchi paragrafida tarixiylik, ilmiylik, qiyosiy tahlil, fanlararo yondashuv kabi ilmiy usullardan foydalanilgan holda 1991–2021-yillarda O‘zbekiston va Hindiston o‘rtasidagi ikki tomonlama munosabatlarni siyosat, iqtisod, tarix fanlari nuqtai nazaridan o‘rgangan o‘zbek va hind olimlarining asarlari muayyan guruh va yo‘nalishlarga ajratilgan holda tahlil etilgan. O‘zbekiston va Hindiston munosabatlariga bag‘ishlangan ilmiy ishlar tahlilidan kelib chiqib, ularni ikki tomonlama aloqalarning iqtisodiy, siyosiy va madaniy yo‘nalishlari borasida yozilgan asarlarga ajratish mumkin.

O‘zbekiston va Hindiston o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarga oid birinchi yo‘nalish bo‘yicha I. Ne‘matov², I.Mavlanov³, S.Mirqosimov, A.Shayxov, F.Tolipov, D.Sayfullayev, I.Mo‘minov⁴ kabi olimlarning ilmiy ishlari o‘rganilgan. R. Asadovanning *“O‘zbekiston–Hindiston o‘rtasidagi o‘zaro iqtisodiy va madaniy sohalardagi hamkorlik: tarixiy asosi va zamonaviy holati (1991–2001-yillar)”* mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida O‘zbekistonning Hindiston bilan iqtisodiy va madaniy sohalardagi hamkorligining asosiy jihatlari

² Нематов И. Становление и развитие экономического сотрудничества Узбекистана и Индии. Автореф. дисс... канд. экон. наук. – Ташкент, 2002. Uzbekistan-India partnership is an important factor for regional stability / <https://economicstimes.indiatimes.com/news/politics-and-nation/uzbekistan-india-partnership-is-an-important-factor-for-regional-stability-ilkhomjon-nematov/articleshow/65935459.cms..>

³ Мавланов И. Экономическая дипломатия Индии в условиях трансформации мирового порядка. – Ташкент, 2010. – С. 335.

⁴ Миркосимов С. Perspective of Economic Development in Uzbekistan and Relations between Uzbekistan and India / India and Central Asia: classical to contemporary periods / editors, J.N.Roy, B.B.Kumar. Nyu-Delhi. 2004. – P. 247-250; Шайхов А. Узбекистан и Индия как торгово-экономические партнеры / Политика Индии в Центральной Азии аспекты узбекского-индийского сотрудничества. – Тошкент, 2007. – С. 140-149; F.Tolipov and K. Warikoo. Spirit and letter of strategic partnership between india and uzbekistan / Himalayan and Central Asian Studies; New Delhi Том 16, Изд. 3/4, (Jul-Дец 2012). – P. 161-171; Сайфуллаев Д. Дипломатические и экономические отношения индии и узбекистана в исторической перспективе. // Восток. Афро-азиатские общества: история и современность. 2017, № 1. – С. 142-148; Муминов И. Policy implications for economic dimension of indian – uzbekistan cooperation // Шарқ машъали. 2020, № 3. – С. 160-165. Унинг ўзи. Policy implications for economic dimension of indian – uzbekistan cooperation // Шарқ машъали. 2020, № 3. – С. 160-165.

qator xorijiy adabiyotlar va birlamchi arxiv manbalari asosida ikki davlat o'rtasidagi aloqalarning 10 yillik davri tadqiq etilgan⁵.

Ikki mamlakat o'rtasidagi munosabatlar siyosatshunoslik doirasida o'rganilgan *ikkinchi yo'nalishdagi* ilmiy-tahliliy ishlarga misol qilib N. Ibragimovaning "Hozirgi bosqichda O'zbekiston Respublikasining Hindiston Respublikasi va Pokiston Islom Respublikasi bilan siyosiy munosabatlarning qiyosiy tahlili"⁶ nomli dissertatsiyasi hamda H. Mustapovaning "Hindiston tashqi siyosatida Markaziy Osiyo vektori" nomli ilmiy tadqiqot ishini keltirish mumkin. *Uchinchi yo'nalishda*, ya'ni ikki mamlakat o'rtasidagi madaniy aloqalar to'g'risida yozilgan ilmiy asarlar orasida S. Mirqosimov, T. Xodjayeva va D. Choriyevaning asarlari alohida o'rin egallaydi⁷.

O'zbekistonning Hindiston bilan ikki tomonlama munosabatlarning siyosiy, iqtisodiy va madaniy jihatlarini Skand R.Tayal, Barun De, Rahul Tripathi, V.Choob, Ramakant Dwivedi, Ramgopal Agarwala, Meena Singh Roy, Prakash Shri, Rajorshi Roy, K.Santhanam, Bxargav Mitra, Nirmala Joshi, Bilal Bhat, Nasir Raza Khan, K. Warikoo, Phool Badan, Sanjay Kumar Pandey, Mushtaq Kawlar kabi hind olimlari⁸ tadqiq etishgan.

⁵ Асадова Р. Ўзбекистон-Ҳиндистон ўртасидаги ўзаро иқтисодий ва маданий соҳалардаги ҳамкорлик: тарихий асоси ва замонавий ҳолати (1991-2001). Тарих фан.номзод.дисс. – Ташкент, 2007.

⁶Ибрагимова Н. Сравнительный анализ политических взаимоотношений Республики Узбекистан с республикой Индия и Исламской Республикой Пакистана современном эпопе. Дисс... канд. полит. наук. – Ташкент, 2004.

⁷ Мирқосимов С. Особенности культурной дипломатии Индии / Политика Индии в Центральной Азии аспекты узбекского-индийского сотрудничества. – Ташкент, 2007. – С.76-87; Хўжаева Т. Хўжаева Т. Ўзбекистон ва Ҳиндистон адабий алоқалар тарихидан. – Тошкент, 2011. Чориева Д. Маданият соҳасида ҳамкорликлар: Ўзбекистон Ҳиндистон мисолида / Хорижий шарқ мамлакатлари тарихий жараёнлари ва уларни ўрганишнинг долзарб муаммолари. Илмий-амалий конференция материаллари. – Тошкент, 2018. – Б. 220-222.

⁸ Skand R. Tayal Indo-Uzbek relations: An Evolving Partnership / Contemporary Indo-Uzbek Perspectives on Bilateral and Regional Issues. Nyu-Delhi, 2009. 1-10 page. Внешняя политика Индии:отношения с Центральной Азией / Политика Индии в Центральной Азии аспекты узбекского-индийского сотрудничества. – Ташкент, 2007. – С. 3-11. Barun De. Post-Communist Transition in Popular Culture of Indo-Uzbek Relationships in the1990s: Some Memories / Contemporary Indo-Uzbek Perspectives on Bilateral and Regional Issues. Nyu-Delhi, 2009. 16-24 page. Rahul Tripathi. Indo-Uzbek Relations in the Trans-Regional Context Linking South Asia and Central Asia / Contemporary Indo-Uzbek Perspectives on Bilateral and Regional Issues. Nyu-Delhi, 2009. 52-61 page. V.Choob Climate Change and its Effect on the Water Re Sources of Uzbekistan and India / Contemporary Indo-Uzbek Perspectives on Bilateral and Regional Issues. Nyu-Delhi, 2009. 192-196 page. Indo-Uzbek Perspectives on the Environment and Sustainable Development. editors, K Santhanam, Ramakant Dwivedi. Nyu-Delhi, 2007. page 100. Contemporary Indo-Uzbek Perspectives on Bilateral and Regional Issues. editors, K Santhanam, Ramakant Dwivedi, Abdusamat Khaydarov. Nyu-Delhi, 2009. page 100. Ramgopal Agarwala. The Environment and Sustainable Development in Uzbekistan: Potential for Indo-Uzbek Cooperation / Indo-Uzbek Perspectives on the Environment and Sustainable Development. editors, K Santhanam, Ramakant Dwivedi. Nyu-Delhi, 2007. 70-78 page. Meena Singh Roy. Uzbekistan: The Key Pillar of India's 'Act North' Engagement / Strategic Analysis; New Delhi Том 44, Изд. 2, (Mar 2020): 106-124. India-Uzbekistan: emerging partnership for peace and development / Himalayan and Central Asian Studies; New Delhi Том 9, Изд. 1/2, (Jan-Jun 2005). Prakash Shri. India Uzbekistan relations during the 1990s and Future Prospects // Materials of the International Seminar (21-22 Nowember, 2001). - New Delhi:J.Neru University, 2001. Бхаргав Митра. Индия и Узбекистан на пути сотрудничества / Политика Индии в Центральной Азии аспекты узбекского-индийского сотрудничества. – Ташкент, 2007. – С. 179-188. Nirmala Joshi. Reconnecting India and Central AsiaEmerging Security and Economic Dimensions. Central Asia-Caucasus Institute & Silk Road Studies Program, 2010. Pp.19-33. Bilal Bhat. Milieu of National Initiatives: Perspective on Cross Leveraging India and Central Asia Relations - A Case Study of Uzbekistan // The Strategy of (Re) connectivity Revisiting India's Multifaceted Relations with Central Asia / New Delhi, 2020. – P. 73-95.

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, mustaqillikka erishilganidan keyin O'zbekiston va Hindiston o'rtasida boshlangan siyosiy, iqtisodiy, tarixiy, madaniy aloqalar (asosan o'zaro hamkorlikning sohalar misolidagi masalalari) yuzasidan ayrim tadqiqotlar olib borilgan bo'lsa-da, ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarning shakllanishi va rivojlanishi tarix fani nuqtai nazaridan yaxlit tadqiqot obyekti sifatida o'rganilmagan. Shu bois tez sur'atlarda rivojlanayotgan O'zbekiston–Hindiston munosabatlarning hozirgi davrini tadqiq etish bugun tarixchi, siyosatshunos va iqtisodchi olimlar oldida turgan dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

“O'zbekiston va Hindiston o'rtasida diplomatik aloqalar o'rnatilishining huquqiy asoslari” deb nomlangan ikkinchi paragrafda davlatlar o'rtasida diplomatik aloqalarning yo'lga qo'yilishi, munosabatlarning huquqiy asoslari shakllanishi va rivojlanib borishi kabi masalalar ochib berilgan. Tadqiqot jarayonida O'zbekiston va Hindiston Respublikalari diplomatik aloqalarining 1991–2021-yillarda rivojlanishi ikki bosqichga (1991–2016 hamda 2017–2021-yillarga) ajratib tahlil qilingan.

O'zbekiston va Hindiston o'rtasida o'zaro manfaatli hamkorlik aloqalarining qaror topishi O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti I.Karimovning 1991-yil 17–19-avgust kunlari Hindiston Respublikasining vitse-prezidenti Shankar Dayal Sharmaning taklifiga binoan qilgan rasmiy tashrifidan boshlanadi. Bu mustaqil O'zbekiston prezidentining xorijga qilgan birinchi tashrifi edi. O'zaro muzokaralarda ikkita asosiy hujjat: 1) Savdo-iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy hamkorlikka doir bitim hamda 2) Madaniyat, san'at, ta'lim, ilm-fan, sayyohlik, sport va ommaviy axborot vositalari sohasida hamkorlik to'g'risidagi shartnoma imzolandi⁹.

Ushbu hujjatlarning imzolanishi mustaqil O'zbekiston va Hindiston o'rtasida o'zaro munosabatlar boshlanishi uchun siyosiy, huquqiy va ma'naviy asos yaratdi. Amalda O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng 1991-yil 26-dekabrda Hindiston birinchilar qatorida O'zbekiston suverenitetini e'tirof etib, 1992-yil 18-mart kuni Toshkentda ikki mamlakat o'rtasida elchixonalar darajasida diplomatik munosabatlar o'rnatish haqida Protokol imzolandi. 1992-yil sentabr oyida Dehlida ish boshlagan O'zbekiston Respublikasining konsulxonasi 1994-yilda elchixonaga aylantirildi. 1987-yil 7-aprelda Toshkentda ochilgan Hindiston Bosh konsulligi ham 1992-yilda elchixona maqomini oldi.

Tadqiqotda o'zaro aloqalar yo'lga qo'yilgan vaqtdan boshlab diplomatik munosabatlar kuchayib borganligi ko'rsatilgan. Masalan, hamkorlik ko'lamini

K. Warikoo. Spirit and letter of strategic partnership between india and uzbekistan / Himalayan and Central Asian Studies; New Delhi Том 16, Изд. 3/4, (Jul-Dec 2012). 161-171 p. Phool Badan. “Political and Economic Reforms in Uzbekistan” Security and Society (Jammu) Vol. 7, Nos.1-2, Summer-Winter 2012. – P. 18-33. “Indians in Central Asia” Diaspora Studies (London: Routledge) vol.1, no.1.2007. – P.17–30. Sanjay Kumar Pandey. “Indians in Central Asia” Diaspora Studies (London: Routledge) vol.1, no.1.2007. – P.17–30. Mushtaq Ahmad Kaw. Restoring India's Silk Route Links with South and Central Asia across Kashmir: Challenges and Opportunities // China and Eurasia Forum Quarterly, Volume 7, No. 2 (2009). – P. 59-74

⁹ ЎзМА, М-37-фонд, 2-руйхат, 84-йиғма жилд, 64-варақ.

kengaytirish maqsadida 1993-yil 23–25-may kunlari Hindiston bosh vaziri Narasimxa Rao davlat tashrifi bilan O‘zbekistonda bo‘ldi¹⁰.

Muzokaralar davomida hamkorlikning huquqiy asoslarini mustahkamlashga xizmat qiluvchi kelishuvlar, jumladan, “O‘zbekiston Respublikasi bilan Hindiston Respublikasi o‘rtasida davlatlararo munosabatlar va hamkorlik prinsiplari to‘g‘risida”gi shartnoma, Foyda va mulkka ikki yoqlama soliq solmaslik to‘g‘risida, Havo yo‘llari to‘g‘risida, Savdo-iqtisodiy hamkorlik to‘g‘risida bitimlar, Sayyohlik, fan-texnika va madaniy sohalarida hamkorlik to‘g‘risida ahdlashuv, Osiyo qit‘asida terrorizm va narkotik moddalarni tarqatishga qarshi birgalikda qarshi kurashish, Iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash maqsadida savdo iqtisodiy komissiya tashkil etish to‘g‘risida bitimlar imzolandi. Shu bilan birga, O‘zbekistonda ham hindshunoslikni rivojlantirish maqsadida Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetida “Hindiston kafedrasi” tashkil qilindi. Yuqorida imzolangan shartnoma va kelishuvlardan ikki tomonlama aloqalarda yangi yo‘nalishlarga asos solinganini ko‘rish mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi nomidan 1994-yil 3–5-yanvar kunlari prezident Islom Karimov Hindistonda bo‘ldi. Ikki davlat rahbarining uchrashuvi davomida O‘zbekiston bilan Hindiston o‘rtasidagi savdo, iqtisodiy va texnik hamkorlikni yanada kengaytirishdan o‘zaro manfaatdorlik bildirildi. O‘zbekiston Prezidenti I. A. Karimov va Hindiston Bosh vaziri Narasimxa Rao yangi hujjatlar, jumladan: Iqtisodiy hamkorlik prinsiplari va uni yanada kengaytirishi to‘g‘risida; Ilm-fan texnika, madaniyat, pochta aloqasi, telekommunikatsiyalar sohasidagi hamkorlik to‘g‘risida; Qo‘shma O‘zbekiston-Hindiston bankini tashkil qilish to‘g‘risida; Toshkentda hind madaniy markazini tashkil etish bo‘yicha hamkorlik to‘g‘risida bitimlar imzolandi¹¹. Har bir bitim mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining aniq bir yo‘nalishida yaqin aloqalar o‘rnatilishi uchun mustahkam huquqiy asos yaratdi.

O‘zbekiston–Hindiston diplomatik munosabatlarining rivojlanishida tashqi ishlar vazirliklari o‘rtasidagi siyosiy maslahatlashuvlar alohida ahamiyat kasb etadi. Bunday uchrashuvlar 1997-yil avgust oyidan beri muntazam ravishda o‘tkazib kelinadi. O‘zbekiston birinchi prezidenti Islom Karimovning 2011-yil may oyida Hindiston Respublikasiga davlat tashrifi diplomatik aloqalarni strategik sheriklik darajasiga ko‘tarishda muhim omil bo‘ldi. Davlat rahbarining tashrifi davomida 34 ta ikki tomonlama hujjat, jumladan, O‘zbekiston va Hindiston o‘rtasida o‘zaro strategik sherikchilik to‘g‘risida qo‘shma bayonot imzolandi¹².

O‘zbekistonv–Hindiston aloqalarining birinchi bosqichida (1991–2016-yillar) ikki tomonlama munosabatlar evolyutsiyasida uzoq muddatli turg‘unlik holati bo‘lmagani, munosabatlarning barcha yo‘nalishlari rivojlanib borgani

¹⁰ ЎзМА, М-37-фонд, 1-рўйхат, 1775-йиғма жилд, 114-варақ.

¹¹ ЎзМА, М-37-фонд, 1-рўйхат, 1775-йиғма жилд, 81-варақ.

¹² India – Uzbekistan Relations. <http://www.mea.gov.in/Portal/ForeignRelation/Uzbekistan-January-2012.pdf>.

tadqiqot jarayonida o'z tasdig'ini topdi. O'zbekiston mustaqillikka erishgan kundan 2018-yilgacha bo'lgan davr oralig'ida: Hindistonga O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti besh marta (1991, 1994, 2000, 2005, 2011-yillarda), O'zbekiston tashqi ishlar vaziri to'rt marta (1996, 2003, 2004, 2017-yillarda), ayni vaqtda, O'zbekistonga Hindiston bosh vazirlari to'rt marta (1993, 2006, 2015, 2016-yillarda), tashqi ishlar vazirlari yetti marta (1996, 1999, 2003, 2009, 2010, 2013, 2018-yillarda) rasman tashrif buyurgan. Rasmiy tashriflar doirasida 100 dan ortiq hujjatlar imzolangan.

Amalga oshirilgan rasmiy uchrashuvlar doirasida, *birinchidan*, O'zbekiston–Hindiston siyosiy muloqotining muntazam ravishda olib borilishi, parlamentlararo aloqalar, savdo-iqtisodiy, sarmoyaviy va madaniy gumanitar sohalaridagi hamkorlikni kengaytirish va ko'p tomonlama hamkorlikni rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etdi. *Ikkinchidan*, O'zbekiston bilan Hindiston davlat tuzilmalari va ishbilarmon doiralari o'zaro tovar yetkazib berish hamda xizmat ko'rsatishni yanada jadallashtirish va diversifikatsiya qilishdan, iqtisodiyotning axborot texnologiyalari va telekommunikatsiyalar, farmatsevtika va biotexnologiyalar, kimyo va yengil sanoat, shuningdek, uglevodorodlar xom ashyosini o'rganish va o'zlashtirish kabi yuqori texnologiyali tarmoqlarda o'zaro foydali qo'shma korxonalar barpo etishdan manfaatdor ekanliklari qayd qilindi. *Uchinchidan*, asosiy mintaqaviy va global masalalar yechimi borasidagi yondashuvlarning o'xshash va yaqinligi tomonlarning xalqaro tashkilotlar doirasidagi hamkorligida muhim asos bo'lib xizmat qildi.

Umuman olganda, mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlash, diniy ekstremizmning barcha ko'rinishlariga qarshi kurashish, xalqaro terrorizm va narkobiznes kabi xalqaro munosabatlardagi muammolarni bartaraf etish yo'nalishidagi o'zaro hamkorlikni kuchaytirish har ikki mamlakat uchun strategik ahamiyat kasb etadi.

Dissertatsiyaning "*O'zbekiston–Hindiston munosabatlar tarixining yangi bosqichi*" deb nomlangan uchinchi paragrafida O'zbekiston va Hindiston Respublikalari hamkorlik aloqalarining ikkinchi bosqichida (2017–2021-yillar) O'zbekiston Respublikasi prezidenti SH.Mirziyoyev bilan Hindiston Respublikasi prezidenti Ram Nath Kovind va bosh vazir Narendra Modi o'rtasidagi bevosita va bilvosita (videoanjuman orqali) muntazam uchrashuvlar ikki davlat munosabatlarini yangi darajaga olib chiqqanligi asoslab berildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning Hindistonga 2018-yil 30-sentabr – 1-oktabr kunlaridagi davlat tashrifi ikki tomonlama munosabatlarni sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tardi. Muzokaralar jarayonida ikki davlat hamkorligining turli sohalariga oid 20 ta hujjat imzolandi. Xususan, harbiy ta'lim, huquq va adliya, farmatsevtika sohalaridagi munosabatlarni rivojlantirishga doir o'zaro anglashuv memorandumlari qabul qilinib, O'zbekiston–Hindiston ishbilarmonlik kengashini tashkil etish to'g'risidagi bitim, Andijon viloyati bilan Hindistonning Gujarat shtati, Samarqand va Agra shaharlari o'rtasida hamkorlik

va sheriklikni yo‘lga qo‘yish, Andijon shahrida erkin farmatsevtika zonasini tashkil etish to‘g‘risidagi anglashuv memorandumlari imzolandi.

O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Hindiston Respublikasi bosh vaziri Narendra Modining taklifiga binoan navbatdagi rasmiy tashrif bilan 2019-yil 17–18-yanvar kunlari ushbu mamlakatda bo‘lib, “Jo‘shqin Gujarat — 2019”¹³ IX xalqaro investitsiya sammitida ishtirok etdi.

2020–2021-yillarda dunyoda koronavirus pandemiyasi tufayli vujudga kelgan og‘ir epidimologik vaziyatda ham aloqalarni rivojlantirib borish va pandemiyaga qarshi kurashishda o‘zaro tajriba almashish maqsadida ikki mamlakat o‘rtasida onlayn videokonferensiya va sammitlar tashkil qilib borildi. Xususan, 2020-yil 11-dekabrda Shavkat Mirziyoyev va Narendra Modi o‘rtasida videoanjuan tarzida uchrashuv o‘tkazildi. Sammit kun tartibida siyosiy muloqotni yanada kengaytirish, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, moliyaviy-texnikaviy, ta‘lim, madaniy-gumanitar sohalardagi ikki tomonlama hamkorlikni mustahkamlash masalalari o‘rin olgan bo‘lib, muzokaralar chog‘ida siyosiy sohada tizimli, o‘zaro ishonchga asoslangan muloqotni davom ettirish, ikki mamlakat tashqi siyosat idoralarining muntazam maslahatlashuvlarini o‘tkazish hamda ular o‘rtasida o‘rta muddatli dastur qabul qilish, kelgusida savdo-iqtisodiy aloqalarda tovar ayirboshlash hajmini 1 milliard dollarga yetkazish vazifalari qo‘yildi. Onlayn muzokaralar yakunida qo‘shma bayonot qabul qilinib, iqtisodiyot va innovatsiyalar, moliyaviy-texnikaviy ko‘mak, bojxona ishi va savdoni texnik tartibga solish, kadrlar tayyorlash va qo‘shma ilmiy tadqiqotlar o‘tkazish, kiberxavfsizlik, raqamli texnologiyalar va tiklanadigan energetika bo‘yicha to‘qqizta shartnoma imzolandi¹⁴.

Umuman olganda, so‘nggi yillarda O‘zbekiston va Hindiston munosabatlarida diplomatik tashriflar ko‘payib borganligini ko‘rish mumkin. Masalan, birgina 2021-yilning o‘zida ikki davlat tashqi ishlar vazirliklari o‘rtasida xalqaro forum va tadbirlar doirasida olti marotaba uchrashuv o‘tkazildi.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston tashqi siyosatida amalga oshirilgan ochiq pragmatik va amaliy o‘zgarishlar natijasida O‘zbekiston va Hindiston o‘rtasidagi diplomatik munosabatlar sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarildi. Bu jarayonda siyosiy, iqtisodiy, gumanitar, ilmiy-texnikaviy sohalarda ikki va ko‘p tomonlama aloqalarning mustahkam normativ-huquqiy ba‘zasi yaratilganligi, xalqaro va mintaqaviy miqyoslarda manfaatlar uyg‘unligi, Hindistonning kuchli industrial baza va zamonaviy ilmiy-texnikaviy salohiyat asosida jadal rivojlanayotgani, ayniqsa, axborot texnologiyalari, tibbiyot, farmatsevtika, yengil sanoat kabi yo‘nalishlarda erishayotgan muvaffaqiyatlari, o‘z navbatida, Hindiston kompaniyalarining O‘zbekiston iqtisodiyotiga katta qiziqish bilan

¹³ Jo‘shqin Gujarat–2003-yildan buyon har ikki yilda bir marta Gujarat shtatining Gandigar shahrida, Mahatma Mandir majmuasida o‘tkazilib kelinadigan xalqaro iqtisodiy forumdir. Ushbu forumning asoschisi Narendra Modi hisoblanadi.

¹⁴ The potential for transformative India-Uzbekistan bilateral relations. <https://www.orfonline.org/expert-speak/the-potential-for-transformative-invl-at-dia-uzbekistan-bilateral-relations/>.

qarashi, hindistonlik tadbirkorlarning avtomobilsozlik, to'qimachilik va sayyohlik kabi sohalarda faol sarmoya kiritishga qiziqish bildirayotgani muhim rol o'ynagani tadqiqotda o'z aksini topgan.

Dissertatsiyaning **ikkinchi bobi** **“O‘zbekiston–Hindiston munosabatlarida savdo-iqtisodiy hamkorlik va xavfsizlik masalalari”** deb nomlanib, bunda tomonlar o'rtasida savdo-iqtisodiy aloqalarning rivojlanib borishi hamda Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash borasida ikki davlat o'rtasidagi hamkorlik aloqalari tadqiq etilgan.

Ushbu bobning *“O‘zbekiston va Hindiston o‘rtasida savdo-iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi”* deb nomlangan birinchi paragrafida ikki davlat o'rtasida mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab samarali savdo-sotiq aloqalari yo'lga qo'yilganligi, davlatlar o'rtasidagi tovar aylanmasining miqdori statistik ma'lumotlar asosida o'rganilganida o'sib borish dinamikasi aniqlangan, jumladan, farmatsevtika sohasidagi va hududlar doirasidagi iqtisodiy hamkorlik aloqalari tahlil etilgan.

O‘zbekiston–Hindiston savdo-iqtisodiy aloqalari mustaqillik davridan boshlab yangi zamon ruhida, o‘zaro hurmat va do‘stlikka asoslangan munosabatlar doirasida bevosita amalga oshirilib kelmoqda. Ikki davlat o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar O‘zbekiston sobiq SSSR tarkibida bo‘lgan yillarda ham yo'lga qo'yilgan bo‘lib, jumladan, 90-yillar boshida respublikamizning 130 dan ortiq korxonalari o'z mahsulotlarini Hindistonga eksport qilgan. Ta'bir joiz bo'lsa, aytish kerakki, o'zbekistonlik mutaxassislar, Bxilai metallurgiya zavodi va Tamilland shtatidagi issiqlik elektr stansiyasi, Madhya-Pradesh elektr stansiyasini bunyod etishga munosib hissa qo'shdilar. Birgina 1987-yilda O‘zbekiston Hindistonga 40 dan ortiq turdagi tovarlarni eksport qilgan bo‘lsa, o'z navbatida, Hindiston ham O‘zbekistonga an'anaviy ravishda xalq iste'moli mollarini yetkazib turgan. Xususan, choy mahsulotlarini eksport qiladigan “Komimpeks”, “Royal eksport”, “Neshnl Lazer Klouz”, “Manjit Nonda Interneshnl” kabi 20 ga yaqin hind firmalari faoliyat yuritgan. 1990-yil 14-sentabrda O‘zbekistonda Hindiston bilan birgalikda “Yuniteks Interneshnl” qo'shma korxonasi ishga tushirilgan¹⁵.

Jumladan, arxiv ma'lumotlarida keltirilishicha, 1993-yilda O‘zbekiston Respublikasi hududida 24 ta O‘zbekiston–Hindiston qo'shma korxonasi tashkil etilib, ularning faoliyati xalq iste'moli mollarini ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va qayta ishlash, mehmonxona majmualari qurish hamda ular uchun jihozlar ishlab chiqarish va ulardan foydalanish, dori-darmonlar ishlab chiqarish, kompyuterlar yig'ish va dasturiy ta'minot yaratish kabi ishlar bilan shug'ullangan. “East Butterfly” zanglamaydigan po'latdan oshxona buyumlari ishlab chiqarishni yo'lga qo'ygan birinchi hind-o'zbek qo'shma korxonasi bo'ldi.¹⁶


¹⁵ Кўчаров Ч. Ўзбекистон Республикасининг Осиё давлатлари билан иқтисодий алоқалари (1985-1991 йиллар). Тарих фан. ном. дисс... – Тошкент, 1996. – Б. 101-102.

¹⁶ ЎзМА, М-37 фонд, 2-рўйхат, 84-йиғма жилд, 107-варақ

Tadqiq etilgan davrda tashkil etilgan korxonalar statistikasiga e'tibor qaratganda mazkur qo'shma korxonalarining o'sib borish dinamikasini ko'rish mumkin. Masalan, 1995-yilda hindistonlik tadbirkorlar ishtirokidagi korxonalar soni 25 ta bo'lsa, 1998-yilga kelib ular 38 taga yetdi (20 tasi qo'shma korxonalar, 18 tasi 100 foiz xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar). 2000-yilda esa 46 ta qo'shma korxonalar ro'yxatga olingan edi. Ulardan 24 tasi to'lig'icha hind sarmoyasi asosida tashkil etilgan. Hindiston kapitali ishtirokidagi korxonalar 1997-yilda ishlab chiqargan mahsulot, ish va xizmatlarning umumiy hajmi 688,3 mln so'mni tashkil etdi. 1998-yilda O'zbekiston–Hindiston qo'shma korxonalarini tomonidan 221,7 ming AQSH dollari miqdoridagi mahsulot eksport qilindi¹⁷.

O'zbekiston va Hindiston o'rtasida amal qilgan tovar ayirboshlash dinamikasiga e'tibor qaratilsa, 1992–2000-yillarda u o'sib borganligini kuzatish mumkin.

O'zbekiston va Hindiston o'rtasida 1992-2000-yillar bo'yicha tovar aylanmasi dinamikasi (mln.AQSh dollari miqdorida)



2000-yilda 1992-yilga nisbatan tovar ayirboshlash hajmi 12 baravar oshdi. 2001-yilda ikki davlat o'rtasidagi umumiy tovar ayirboshlash hajmi 19,98 mln AQSH dollarini tashkil etdi, shundan 10,52 mln dollari eksport, 9,46 mln AQSH dollari esa import hissasiga to'g'ri keldi.

Hindiston hukumati Savdo va sanoat vazirligi tomonidan e'lon qilingan ma'lumotlarga ko'ra, 2000–2008-yillarda Hindistondan O'zbekistonga an'anaviy ravishda farmatsevtika mahsulotlari, choy, mashinasozlik, qadoqlash materiallari, plastmassa, tikuvchilik, trikotaj va jarrohlik buyumlari, xalq iste'moli mollari eksport qilingan. O'zbekistonning Hindistonga eksporti tarkibini esa mashinasozlik mahsulotlari hamda xizmatlar bilan birga, paxta, ipak xomashyosi, jun, rangli metallar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari tashkil qildi¹⁸.

¹⁷ ЎЗМА, М-37 фонд, 1-рўйхат, 3656-йиғма жилд, 9-варақ

¹⁸ Nasir Riza Khan. India Uzbekistan Relation: Past History And Present Relation. International Journal of Multidisciplinary Research and Development 2014; 1(1). – P. 56-59.

2007-yildan 2010-yilgacha Hindistonning O‘zbekistonga kiritgan sarmoyasi 33,5 million AQSH dollarini tashkil etdi. Hindistonning “Spenteks” to‘qimachilik kompaniyasi 2006-yil avgust oyida Toshkent yaqinida 81 mln dollarlik sarmoya evaziga ikkita to‘qimachilik fabrikasi barpo etdi, 2007-yilda Farg‘onada yana bitta to‘qimachilik kompaniyasi faoliyat yurita boshladi. Hindistonning “Minda Grupp” kompaniyasi tashabbusi bilan 25 mln dollarlik avtomobil butlovchi qismlarini ishlab chiqarish bo‘yicha loyiha amalga oshirildi. Mazkur statistik ma‘lumotlar Hindiston va O‘zbekiston o‘rtasidagi iqtisodiy hamkorlik va o‘zaro tovar ayirboshlashning ulkan salohiyatidan, ko‘p qirrali ikki tomonlama hamkorlik keng ko‘lamli imkoniyatlarga egaligidan dalolat beradi.

Ma‘lumotlarga ko‘ra, 2011-yilda respublikamizda Hindiston kapitali ishtirok etgan 62 ta korxonalar faoliyat ko‘rsatib, ularning 11 tasi to‘liq hindistonlik sarmoyadorlar tomonidan moliyalashtirilgan bo‘lsa,¹⁹ 2018-yilda O‘zbekistonda Hindiston sarmoyasi ishtirokida 145 ta korxonalar faoliyat yuritdi. Ularning 58 tasi to‘liq xorij kapitali evaziga tashkil etilgan. 2018–2020-yillar davomida O‘zbekistonda hind kapitali ishtirokida 200 dan ortiq yangi korxonalar tashkil etilgani hind ishbilarmonlarining mamlakatimizda faolligi ortib borayotganidan dalolat beradi.

Hindiston sarmoyasi ishtirokidagi korxonalar, asosan, xalq iste‘moli mollari ishlab chiqarish, qishloq xo‘jaligi va ko‘nchilik, to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish, farmatsevtika, qurilish, sayyohlik, ulgurji va chakana savdo yo‘nalishlarida ish olib bormoqda.

Ikki mamlakat o‘rtasidagi iqtisodiy hamkorlik munosabatlarini mutlaqo yangi bosqichga olib chiqishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil 30-sentabr — 1-oktabr kunlari Hindiston Respublikasiga qilgan davlat tashrifi alohida ahamiyatga ega bo‘ldi. Mazkur tashrif yakunlari bo‘yicha ikki mamlakat o‘rtasida iqtisodiy aloqalarni kengaytirish va istiqbolda rivojlantirish bo‘yicha qator hujjatlar imzolandi. Jumladan, O‘zbekiston–Hindiston ishbilarmonlar kengashini tashkil etish to‘g‘risidagi bitim, shuningdek, Andijon viloyati bilan Hindistonning Gujarat shtati, Samarqand bilan Agra shaharlari o‘rtasida hamkorlik va sheriklikni yo‘lga qo‘yish, Andijon shahrida erkin farmatsevtika zonasini tashkil etish to‘g‘risidagi anglashuv memorandumlari imzolanib, kelgusida ikki mamlakat o‘rtasidagi tovar ayirboshlash hajmini 1 milliard dollarga yetkazish haqida kelishib olingani qayd etildi²⁰.

2020-yil 11-dekabr kuni O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev hamda Hindiston bosh vaziri Narendra Modi ishtirokida bo‘lib o‘tgan virtual sammit davomida Hindiston tomoni O‘zbekistonda yo‘l qurilishi,

¹⁹ Ўзбекистон – Ҳиндистон: ҳамкорликни ривожлантиришнинг янги имкониятлари // O‘zbekiston Milliy Axborot agentligi, 20.01.2020. <https://uza.uz/oz/posts/o-zbekiston-hindiston-hamkorlikni-rivojlantirishning-yangi-i-07-07-2015>.

²⁰ Тарихий муштаракликка эга муносабатларнинг янги бошқичи // Халқ сўзи, 2018 йил 1 октябрь.

oqova suvlarni tozalash va axborot texnologiyalari sohasidagi to'rtta taraqqiyot loyihasi uchun 448 mln AQSH dollari miqdorida kredit mablag'lari ajratish majburiyatini o'z zimmasiga oldi²¹. 2020-yilda Hindiston va O'zbekiston o'rtasida qiymati 3 mlrd dollarlik 50 ta investitsiya loyihasini amalga oshirish to'g'risida kelishuvlarga erishildi.

O'zbekiston va Hindiston iqtisodiy hamkorligida farmatsevtika sohasi asosiy o'rinni egallaydi. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi Hindistonning "Adjanta farma", "Gufik LTD", "San Farma", "D-r Reddis laboratoris", "Lupin Laboratoris", "Kore", "Serum Institute of India" kabi farmasevtika kompaniyalari bilan hamkorlikni yo'lga qo'ydi. Farmasevtika sohasida O'zbekistonda "Novafarm", "Shayana Farm", "Bravo Farm", "Ultra Xels Kear", "Gufik Avitsenna" kabi hind kompaniyalari faoliyat ko'rsatmoqda. O'zbekistonga Hindistondan eng katta dori-darmon yetkazib beruvchi "Shayana Farm" kompaniyasiga hindistonlik investor Ashok Kumar Tivari²² 2002-yilda Toshkentda asos solgan. Bu kompaniya yiliga 30 mln AQSH dollari miqdoridagi sarmoya aylanmasiga ega farmatsevtika korxonasi hisoblanadi. 2017-yil mart oyida ushbu kompaniya bilan hamkorlikda 4 mln AQSH dollarilik sarmoya bilan "Well Med farm" – nomli farmasevtika korxonasi tashkil etildi²³.

Tadqiqot jarayonida so'nggi yillarda Hindiston bilan savdo-iqtisodiy hamkorlik sezilarli darajada kuchaygani ma'lum bo'ldi. Masalan, 2018–2021-yillarda tovar ayirboshlash hajmi oshgani kuzatildi, O'zbekistonning 100 ga yaqin kompaniyalariga Hindistondan sarmoya kiritilmoqda. Ikki davlat o'rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi yildan yilga ortib bormoqda. Uning ko'rsatkichi 2018-yilda 286,5 mln AQSH dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2021-yilga kelib 490 mln AQSH dollariga yetdi²⁴.

Umuman olganda, geografik va geosiyosiy to'siqlar mavjudligiga qaramay, ikki davlat o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar kengayib bormoqda. Mamlakatimiz iqtisodiyotini liberallashtirish va modernizatsiya qilish, uni barqaror taraqqiy ettirish, jahon iqtisodiyotiga izchil integratsiyalash, ochiq va pragmatik tashqi siyosat yuritishga qaratilgan tizimli va keng ko'lamli islohotlar, O'zbekiston va Hindiston o'rtasidagi savdo-iqtisodiy munosabatlarni ham har jihatdan yangi bosqichga olib chiqdi.

Ushbu bobning *"Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik va barqarorlikni ta'minlash borasida O'zbekiston–Hindiston hamkorlik aloqalari"* deb nomlangan ikkinchi paragrafida mintaqada tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash masalasi ikki tomonlama harbiy hamkorlik, "Markaziy Osiyo va Hindiston", Hindiston va Shanxay hamkorlik tashkiloti formatlarida, shuningdek, transport-

²¹ Ўзбекистон ва Ҳиндистон: барқарор ривожланиш ва эко-энергетика соҳасидаги ҳамкорлик // <http://www.interpress.uz/o%E2%80%98zbekiston-va-hindiston-barqaror-riv/>.

²² Ашок Кумар Тивари "Шаяна Фарм"нинг асосчиси бўлиши билан бирга Ўзбекистонда Ҳинд диаспорасининг бошлиғи ҳисобланади. У 2002 йилдан ҳозирги вақтга қадар Тошкентда оиласи билан бирга яшаб келмоқда.

²³ India-Uzbekistan relations // <http://zims-en.kiwix.campusafrika.gos.orange.com/>.

²⁴ India-Uzbekistan relations // <https://eoi.gov.in/tashkent/?2615?000>.

kommunikatsiya yo‘nalishlari doirasida tahlil qilingan.

O‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, O‘zbekistonning harbiy sohadagi aloqalarni rivojlantirishga intilishi Hindistonni ekstremizmga qarshi kurashda asosiy sheriklardan biri deb bilishi bilan bog‘liq. Shu o‘rinda, fikrimizning dalili sifatida 2021-yil 18-martda “The EurAsian Times” gazetasida e‘lon qilingan “India, Uzbekistan Conducting ‘DUSTLIK’ Counter-Terrorism Drills Up In The Himalayas” nomli maqolani keltirib o‘tish joiz. Ushbu maqolaning “Why Is Uzbekistan So Important To India?” (“Nima uchun O‘zbekiston Hindiston uchun juda muhim?”) deb nomlangan ruknida ekspertlarning quyidagi fikrlari keltirilgan: “1999-yildan beri O‘zbekistonda terrorchilik harakati sodir etilmagan bo‘lsa-da, mamlakatda yoshlarning ekstremistik g‘oyalarga ergashishi muammosi bor, chunki ISHID mintaqadagi bazasini kengaytirishga harakat qilmoqda. Bundan tashqari, mamlakat aholisining 64 foizini 35 yoshgacha bo‘lgan fuqarolar tashkil etganligi sababli, ko‘plab yoshlarning jangari tashkilotlarga qo‘shilish istagi davlatni jiddiy tashvishga solmoqda. Hindiston ham, O‘zbekiston ham terrorizm, transmilliy uyushgan jinoyatchilik, noqonuniy kontrabandaga qarshi kurashish borasida bir xil fikrga ega va oxirgi vaqtlarda o‘tkazilgan harbiy mashg‘ulotlar ushbu tahdidlarga qarshi kurash yo‘lida tashlangan qadamlardir”²⁵.

Xavfsizlik sohasidagi hamkorlik mudofaa masalalari bo‘yicha birgalikda tadqiqotlar olib borishni, terrorizmga qarshi kurash choralari muvofiqlashtirishni hamda Hindiston uchun ham, Markaziy Osiyo uchun ham juda muhim bo‘lgan Afg‘onistonning xavfsizligi masalasida maslahatlashishni qamrab oladi. Davlatlar o‘rtasidagi hamkorlik aloqalarida harbiy hamkorlik ham o‘z o‘rniga ega.

Ta’kidlash joizki, 2019-yil noyabr oyida ikki mamlakat o‘rtasida amalga oshirilgan harbiy hamkorlik xavfsizlik sohasidagi aloqalarning rivojlanishiga asos bo‘ldi. Hindiston Jahon ishlari kengashining ilmiy xodimi, ekspert doktor Rashmini Koparkar o‘z maqolasida O‘zbekiston va Hindiston o‘rtasida 2018–2019-yillarda amalga oshirilgan munosabatlarga to‘xtalib ta’kidlaganidek, “mudofaa va xavfsizlik sohasida strategik sheriklikning yangi yo‘nalishi sifatida paydo bo‘lgan hamkorlik hamda “Do‘stlik” nomi bilan tashkil etilgan harbiy mashqlar mintaqada tinchlik, barqarorlik va xavfsizlikka hissa qo‘shib kelmoqda”²⁶.

Markaziy Osiyo yo‘nalishida Hindiston tashqi siyosiy yondashuvlarining yangi formatini yaratish tashabbusida O‘zbekiston yetakchi kuch sifatida maydonga chiqdi. 2018-yil 13–14-sentabr kunlari O‘zbekistonning Xalqaro aloqalar axborot-tahlil markazi Hindiston Jahon ishlari kengashi bilan

²⁵India, Uzbekistan Conducting ‘DUSTLIK’ Counter-Terrorism Drills Up In The Himalayas / <https://eurasianimes.com/why-india-attaches-so-much-importance-to-this-central-asian-country> . Accessed 25.03. 2021

²⁶ “Dustlik”: A Step Forward in India-Uzbekistan Security Partnership / https://www.icwa.in/show_content.php?lang=1&level=3&ls_id=4840&lid=3 Accessed 29.03. 2021.

hamkorlikda tashkil etgan anjumanda “Hindiston – Markaziy Osiyo” muloqoti formati ishlab chiqildi. Tashqi ishlar vazirliklari darajasida Afg‘oniston ishtirokida “Hindiston–Markaziy Osiyo” muloqotiga asos solinishi O‘zbekiston va Hindistonning qo‘shma tashabbusi bo‘lib, Hindistonning mintaqa davlatlari bilan aloqalarida yangi sahifa ochdi. Samarqandda asos solingan ushbu diplomatik platforma mintaqaviy hamkorlik ko‘lamini kengaytirishda dolzarb va samarali mexanizmga aylandi. 2019-yil 12–13-yanvar kunlari Samarqand shahrida Afg‘oniston ishtirokidagi “Hindiston–Markaziy Osiyo” muloqoti tashqi ishlar vazirlarining birinchi uchrashuvi, 2020-yil 28-oktabr kuni – videokonferensiya shaklida ikkinchi yig‘ilishi, 2021 yil 19-dekabr kuni – Dehli shahrida uchinchi yig‘ilishi o‘tkazilib, muzokaralarda Afg‘onistonni mintaqa va jahon iqtisodiy aloqalari tizimiga jalb etishga xizmat qiladigan qo‘shma infratuzilmalar yaratish, tranzit-transport, energetika va boshqa sohalardagi loyihalarni amalga oshirish orqali bu mamlakatning iqtisodiy jihatdan tiklanishida yordam berish, Markaziy Osiyo davlatlarining tranzit va transport-kommunikatsiya salohiyatini rivojlantirish, turistik safarlarni ko‘paytirish, shuningdek, ilm-fan, tibbiyot, ta‘lim va sport sohalarida muayyan qo‘shma loyihalarni amalga oshirishga alohida e‘tibor qaratilgan. Shu tariqa, ikki tomonning ham kelgusida ko‘p tomonlama munosabatini kengaytirishdan manfaatdorligi natijasida yangi “Hindiston – Markaziy Osiyo” muzokara maydoni yuzaga keldi.

O‘zbekiston va Hindiston o‘rtasida transport-kommunikatsiya loyihalarini amalga oshirish Afg‘onistonda tinchlik o‘rnatish uchun maqbul formulani izlab topishning asosiy drayveriga aylanishi mumkin. Hindistonning Markaziy Osiyoga Afg‘oniston orqali bog‘lanishida istiqbolli yagona yo‘lak Eronning Chobahor dengiz porti hisoblanadi. 2017-yil oktabr oyida Hindistondan Afg‘onistonga dastlabki don karvoni Chobahor porti orqali jo‘natildi²⁷. 2018-yil dekabr oyida Hindiston mazkur port faoliyatini o‘z boshqaruviga oldi²⁸. Bu Hind okeaniga to‘g‘ridan-to‘g‘ri chiqish imkonini beradigan yagona Eron dengiz portidir.

Germaniyalik ekspert G.Knabening ta‘kidlashicha, Afg‘oniston azaldan tranzit mamlakat – tarixan transmintaqaviy aloqalarning asosiy bo‘g‘ini, ta‘bir joiz bo‘lsa, hamkorlik “ko‘prigi” hisoblanadi. Binobarin, Afg‘onistonning keyinchalik yo‘qolib qolgan ana shu o‘ta muhim rolini tiklash orqali mamlakat ikki mintaqa o‘rtasidagi barqarorlikni “jipslashtiruvchi” mexanizmga ega bo‘lishi shubha tug‘dirmaydi²⁹. 2020-yil dekabr oyida O‘zbekiston, Hindiston va Eron ishtirokidagi uch tomonlama ishchi guruhning Chobahor bandargohidan

²⁷ Officials from the Afghanistan Chamber of Commerce and Industries (ACCI) said India will send its first cargo of wheat to Afghanistan through Chabahar Port in Iran // <https://tolonews.com/business/india%E2%80%99s-first-shipment-wheat-enter-chabahar>

²⁸ India takes over operations of Iran’s strategic Chabahar Port, can bypass Pak on way to Afghanistan // Hindustan Times, December 24, 2018.

²⁹ Саидов А. Марказий ва Жанубий Осиёга янгича геосиёсий мезон билан ёндашув // Янги Ўзбекистон, 2021 йил 15 июль.

birgalikda foydalanish bo'yicha dastlabki yig'ilishi o'tkazildi. Ushbu davlatlar o'rtasida Chobahor portidan foydalanish bo'yicha shartnoma imzolangani Janubiy va Markaziy Osiyoda mintaqaviy aloqalarni rivojlantirishga qaratilgan yangi strategik qadamlar hisoblanadi.

Dissertatsiyaning **“O‘zbekiston va Hindiston o‘rtasidagi madaniy-gumanitar hamkorlik aloqalari”** deb nomlangan uchinchi bobida davlatlar o'rtasida yo'lga qo'yilgan madaniy-gumanitar hamkorlik tahlil qilingan, O'zbekiston–Hindiston va Hindiston–O'zbekiston do'stlik jamiyatlari hamda Toshkentda joylashgan Hind madaniyat markazining ikki xalq o'rtasidagi do'stlikni mustahkamlashga qaratilgan faoliyati ochib berilgan.

“Ikki davlat o'rtasidagi madaniy munosabatlar” deb nomlangan birinchi paragrafda O'zbekistonning Hindiston bilan adabiyot, musiqa, kino, tasviriy san'at sohalaridagi va xalq diplomatiyasi doirasidagi hamkorligi tahlil qilingan. Ikki davlat o'rtasidagi madaniy aloqalarning yanada rivojlanishida *“O'zbekiston–Hindiston do'stlik jamiyati”* katta ahamiyatga ega. Mazkur jamiyat 1990-yil 15-iyun kuni o'zini o'zi boshqaradigan ko'ngilli jamiyat sifatida tuzildi. Tadqiqot davomida o'rganilgan arxiv manbalari asosida ushbu jamiyat tomonidan mustaqillikning dastlabki yillarida keng miqyosli madaniy tadbirlar o'tkazilganligini ko'rish mumkin. Jumladan, 1991-yil may oyida Hindistonda *“O'zbekiston madaniyat haftaligi”* tashkil qilindi. Shuningdek, jamiyat tashabbusi bilan hind yozuvchisi, tarjimon va olim Manzar Salimga Alisher Navoiy nomidagi davlat mukofoti berildi. Holbuki, bunga qadar mazkur mukofotga xorijlik olim sazovor bo'lmagan edi³⁰. *“O'zbekiston–Hindiston do'stlik jamiyati”* tomonidan har yili 26-yanvarda – Hindistonning Respublika kuni, 15-avgustda – Mustaqillik kuni nishonlanadi, shuningdek, Mahatma Gandi, Javoharla'l Neru, Lal Bahadur Shastri, Indira Gandi kabi atoqli jamoat arboblarning tavallud kunlariga bag'ishlab tantanali tadbirlar o'tkaziladi. 1995-yil 16–17-yanvar kunlari Hindistonda *“O'zbekiston kechasi”* musiqiy kunlari o'tkazildi. Tadbirda O'zbekiston xalq artistlari Bobomurod Hamdamov, Rahmatjon Qurbonov ishtirok etdilar³¹.

Hindistonning O'zbekistondagi Elchixonasi bilan hamkorlikda 2006-yil 28-noyabr – 7-dekabr kunlari mashhur hind aktyori Raj Kapur avlodlaridan iborat 14 kishilik ijodiy delegatsiyaning mamlakatimizga tashrifi uyushtirildi. Tashrif davomida mazkur hind san'atkorlari ishtirokida Namangan (1 dekabr), Samarqand (2-dekabr) va Toshkent (4–5-dekabr) shaharlarining nufuzli tomosha zallarida qator konsertlar hamda ijodiy uchrashuvlar o'tkazildi. 2009-yil 1–16-yanvar kunlari Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Davlat akademik katta teatrining 104 nafarli jamoasi Hindistonning Dehli, Mumbay, Madras, Haydarobod shaharlarida gastrol safarida bo'lib, o'z dasturlarini namoyish etdilar.

2015-yilda ikki davlat o'rtasida amalga oshirilgan madaniy ishlar doirasida

³⁰ ЎзМА, М-2-фонд, 1-рўйхат, 26-йиғма жилд, 1-варақ.

³¹ ЎзМА, М-7-фонд, 1-рўйхат, 349-йиғма жилд, 3-варақ.

Hindistonda Navro‘z bayramiga bag‘ishlab o‘tkazilgan tadbirda “O‘zbekraqs” ijodiy birlashmasining raqqosalari ishtirok etishdi. Shuningdek, o‘sha yilning 4–13-aprel kunlari Samarqand, Qo‘qon va Toshkent shaharlarida “Namaste, O‘zbekiston” nomli bir qator madaniy tadbirlar o‘tkazildi³².

2018-yil bahori va kuzida Dehli, Kalkutta va Mumbai shaharlarida O‘zbekiston madaniyati kunlari hamda O‘zbek kinosi festivali o‘tkazilib, mahalliy xalq tomonidan katta qiziqish bilan kutib olindi. Samarqand shahrida 2019-yilgi “Sharq taronalari” xalqaro musiqa festivalida “Hindiston–O‘zbekiston” do‘stlik jamiyatining raisi Anil Shastri, “Debapriya Samanvaya” musiqiy jamoasi, Termiz shahrida Xalqaro baxshichilik san’ati festivalida “Jodhpur Riff” festivali direktori Diva Bxati, 2020-yil “XXI asr xalq raqsi” – “Buxoro jilolari” xalqaro ilmiy konferensiyasida musiqashunos olim Patel Parul Prabudda qatnashdi. O‘z navbatida, O‘zbekiston delegatsiyasi Xaryana shtatida “Surajkund Crafts Mela” san’at, madaniyat va hunarmandlik festivalining mehmoni bo‘ldi³³.

O‘zbekiston va Hindiston o‘rtasidagi madaniy aloqalarda kino san’ati alohida o‘rin tutadi. Bu yo‘nalishdagi madaniy aloqalarimiz uzoq tarixga ega. O‘zbek kinomatografiyachilari hind hamkasblari bilan hamkorlikda “Alibobo va qirq qaroqchi”, “Sevgi afsonasi” kabi badiiy, bir qancha hujjatli filmlar yaratgan bo‘lib, ularda mamlakatlarimiz xalqlari o‘rtasida qaror topgan do‘stlik an‘analari va birodarlik ulug‘lanadi. 1993-yil 26-yanvardan boshlab O‘zbekiston televideniya orqali 102 qismdan iborat “Mahabhorat” teleseriali namoyish etildi. Mazkur asar o‘zbekistonliklar tomonidan katta qiziqish bilan qarshi olindi³⁴. Kino sanoatidagi hamkorlik 2018-yilda Hindiston poytaxtida tashkil etilgan Hindiston–O‘zbekiston kino va madaniyat forumi orqali rivojlanmoqda. 2018-yil IV choragida Hindistonning Dev Entertainment Ventures kompaniyasi O‘zbekistonning Toshkent, Samarqand, Buxoro shaharlarida suratga olingan “Hoichoi” nomli yangi filmini taqdim etdi³⁵.

Adabiy aloqalar yo‘nalishida mustaqillikning dastlabki yillarida Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Boburning g‘azal va ruboiylari urdu va hind tillarida kitob qilib nashr etildi. Hind-o‘zbek adabiy aloqalarini rivojlantirishda o‘zbek kitobxonlariga yaxshi tanish bo‘lgan taniqli urdu tili va adabiyoti mutaxassisi, Dehli universitetining professori, O‘zbekistonda Hindiston madaniy markazining rahbari bo‘lib ishlagan Qamar Raisning xizmatlari katta bo‘ldi. Qamar Rais o‘zbek tarjimon olimlaridan R.Muhammadjonov, Z.Ashurboyev, N.Muhammadov kabilar bilan birgalikda o‘zbek adiblari G‘afur G‘ulom va

³² ЎзР МИВ ЖА.-Хорижий мамлакатлар билан ҳамкорлик ҳисоботи. 2016, 13 варақ.

³³ Узбекистан и Индия: Активные культурно-гуманитарные связи способствуют укреплению взаимопонимания между нашими странами и народами // https://dunyo.info/ru/site/inner/uzbekistan_i_indiya_aktivnie_kulyturnogumanitarnie_svyazi_sposobstvuyut_ukr_eplenyu_vzaimoponimaniya_mezhdu_nashimi_stranami_i_narodami-dOT

³⁴ ЎзМА, М-2-фонд, 1-рўйхат, 109-йиғма жилд, 57-варақ.

³⁵ Huge potential for Bollywood to make movies in Uzbekistan: Uzbek Ambassador // https://www.business-standard.com/article/pti-stories/huge-potential-for-bollywood-to-make-movies-in-uzbekistan-uzbek-ambassador-118093000184_1.html

Zulfiyaning asarlarini urdu tiliga tarjima qildi. Qamar Rais 1997-yildan boshlab Toshkentdagi Hindiston madaniyat markazining rahbari sifatida O‘zbekistonda faoliyatini davom ettirdi³⁶.

Adabiy aloqalar doirasida universitet hindshunoslari tomonidan “Panchatantra”, “To‘tinoma”, “Hito‘padesha” singari qadimgi hind adabiyotining durdonalaridan tortib Prem Chand, Xo‘ja Ahmad Abbos, Krishan Chandar, Yashpal, Bhisham Sahniy, Bhagavaticharan Barma kabi hozirgi zamon adabiyotining taniqli vakillari qalamiga mansub mashhur asarlar o‘zbek tilida katta tirajlarda chop etildi.

Ikki mamlakat o‘rtasida madaniy hamkorlikning rivojlanib borishida O‘zbekiston–Hindiston, Hindiston–O‘zbekiston do‘stlik jamiyatlari, Lal Bahadur Shastri nomidagi hind madaniyat markazi, Shanxay hamkorlik tashkilotining xalq diplomatiyasi markazlari alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Lekin tadqiqot davomida 2017-yildan boshlab O‘zbekiston–Hindiston do‘stlik jamiyatining faoliyati to‘xtab qolgani aniqlandi. Bunga esa o‘sha vaqtgacha do‘stlik jamiyatini boshqarib kelgan direktorning faoliyati tugatilib, shu kunga qadar jamiyatni yurituvchi rahbar tayinlanmagani sabab bo‘lgan.

Tadqiqot doirasida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalari qo‘mitasida olib borilgan o‘rganishlardan ma‘lum bo‘lishicha, O‘zbekistonda mavjud do‘stlik jamiyatlarining rahbarlari davlat tashkilotlarida faoliyat yuritadigan insonlardan tayinlanib, ularning davlat idoralaridagi mehnat faoliyati tugashi bilan do‘stlik jamiyatidagi raisligi ham tugatiladi. Bunday tartib mazkur jamiyatlarning kelgusidagi taraqqiyotiga salbiy ta‘sir ko‘rsatmay qolmaydi. Shu bois kelgusida do‘stlik jamiyatlarining faoliyatini tartibga solib borish vakolatini tashkilotlarning o‘ziga berish jamiyatlar faoliyatini rivojlantirish va xalq diplomatiyasi yo‘nalishidagi amaliy aloqalarni kuchaytirish imkonini beradi.

Dissertatsiyaning *“O‘zbekiston–Hindiston o‘rtasida gumanitar yo‘nalishdagi aloqalar”* deb nomlangan paragrafida ilm-fan, ta‘lim, sport, turizm sohalarida munosabatlarning rivojlanishi tadqiq etilgan, oliy ta‘lim, tibbiyot, axborot texnologiyalari va turizm sohalari ustuvor yo‘nalish sifatida e‘tirof etilishi ko‘rsatilgan.

Har yili o‘zbekistonlik mutaxassislar Hindistonning texnik va iqtisodiy hamkorlik (ITEC) dasturi doirasida ingliz tili, bank ishi, kichik biznes, qishloq xo‘jaligi va boshqa sohalarda Hindistonda malaka oshirib kelmoqdalar³⁷. Bugunga qadar 2500 dan ortiq nomzodlar Hindiston ITEC dasturi doirasida o‘quv kurslarida o‘qib qaytishdi. 2020–2022-yillarga mo‘ljallangan hamkorlik dasturi doirasida hind mutaxassislari bilan qishloq xo‘jaligi, oziq-ovqat, axborot-

³⁶ ЎзМА, М-2-фонд, 1-рўйхат, 109-йиғма жилд, 17-варак.

³⁷ Маматкулова Д. Prospects for the development of priority areas of uzbek-indian cooperation. <http://www.isrs.uz/en/maqolalar/uzbekiston-indiston-amkorligidagi-ustuvor-junalislarni-rivojlantiris-istikbollari>. Accessed 15.05. 2021

kommunikatsiya texnologiyalari, sog‘liqni saqlash va tibbiyot texnologiyalari, biotexnologiya yo‘nalishlarda ilmiy loyihalar amalga oshirilmogda.

Tadqiqotda O‘zbekiston va Hindiston o‘rtasida ilm-fan sohasidagi aloqalarni rivojlantirishda oliy ta‘lim yo‘nalishidagi hamkorlik alohida ahamiyat kasb etganligi aniqlandi. Hindshunos kadrlar tayyorlashda Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti (TDSHU)ning o‘rni alohida bo‘lib, ushbu oliy ta‘lim muassasasida 1947-yildan buyon hind tilidan saboq berib kelinadi; hind tili, Hindiston tarixi, falsafasi, siyosati va iqtisodiyoti bo‘yicha mutaxassislar tayyorlanmogda. 2020/2021-o‘quv yilida TDSHU MDH mamlakatlari oliy ta‘lim muassasalari orasida birinchi bo‘lib Gujarat universiteti bilan hamkorlikda hind tili lingvistikasi bo‘yicha magistratura yo‘nalishida ilk qo‘shma ta‘lim dasturini (double degree) yo‘lga qo‘ydi³⁸.

2018–2021-yillarda oliy ta‘lim sohasidagi aloqalar doirasida O‘zbekistonning 22 ta oliy o‘quv yurti, jumladan, Samarqand, Termiz, Buxoro va Urganch davlat universitetlari, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, Buxoro davlat tibbiyot instituti, Toshkent tibbiyot akademiyasi, Namangan muhandislik-qurilish instituti bilan Hindistonning 50 ga yaqin universitetlari, jumladan Javoharlar Neru universiteti, Dehli universiteti, Mavlono Ozod urdu milliy universiteti, Manipal, Gujarat, Chandigarh universitetlari, Mirzo G‘olib instituti, Hindiston texnologiya va moliya instituti o‘rtasida ta‘limning turli yo‘nalishlarida memorandum va bitimlar imzolandi. 2019-yilda ikki mamlakat munosabatlari tarixida ilk bor Toshkent va Andijon shaharlarida Hindistonning yetakchi Amiti va Sharda universitetlarining sho‘balari ishga tushirildi. Hozirgi vaqtda ular samarali faoliyat olib bormogda.

O‘zbekiston va Hindiston o‘rtasidagi gumanitar aloqalarning muhim tarmoqlaridan biri turizm sohasidagi hamkorlik hisoblanadi. Hindistondan O‘zbekistonga 2011-yilda – 11,5 ming, 2017-yilda –16,3 ming nafar fuqaro tashrif buyurgan bo‘lsa, 2018-yilda bu ko‘rsatkich 21 ming kishini tashkil etib, 29 foizga, 2019-yilda 27 898 kishini tashkil etib, 80 foizga o‘sgan³⁹.

Butunjahon turizm tashkiloti bilan hamkorlikda 1995-yildan buyon o‘tkazib kelinayotgan “Ipak yo‘lida turizm” Toshkent xalqaro turistik ko‘rgazmasida, Buxoro viloyatida har yili o‘tkaziladigan “Ipak va ziravorlar”, 2019-yilda birinchi marotaba Qo‘qon shahrida o‘tkazilgan “Xalqaro xalq amaliy san’ati” festivallarida Hindiston asosiy davlatlar qatorida ishtirok etib kelmogda. O‘z navbatida, Hindistonda ham har yili Osiyodagi eng yirik tadbirlardan biri bo‘lgan va dunyoning 60 dan ziyod mamlakatlardan 1,5 millionga yaqin hunarmandlar ishtirok etadigan Surajkund Mela xalqaro festivali o‘tkaziladi.

³⁸ ТДШУ: Халқаро ҳамкорлик таълим сифатини оширишга хизмат қилади // <https://uza.uz/uz/posts/tdshu-khal-aro-amkorlik-talim-sifatini-oshirishga-khizmat-il-23-10-2020>

³⁹ Ўзбекистон Республикаси Туризм ва маданий мерос вазирлигининг Статистика бўлими маълумотлари. 2018-2022-йилларда ташриф буюрган чет эллик сайёҳлар сони.

2020-yil 1–16-fevral kunlari bo‘lib o‘tgan mazkur tadbirda O‘zbekiston sherik davlat sifatida tanlandi⁴⁰.

Tadqiqot davomida to‘plangan statistik ma’lumotlar tahlilidan ko‘rinadiki, dunyoda ro‘y bergan Covid-19 pandemiyasiga qadar ikki davlat o‘rtasidagi turizm aloqalari ijobiy ko‘rsatkichga ega bo‘lib, O‘zbekistonga tashrif buyuruvchi sayyohlar orasida Hindiston fuqarolari yetakchi o‘rinlarda turgan. Xususan, birgina 2019-yilning to‘qqiz oyi davomida yurtimizga 4,9 mln turist kelgan bo‘lsa, ulardan 22200 nafarini hind sayyohlari tashkil etib, Hindiston fuqarolari O‘zbekistonga tashrif buyurgan davlatlar orasida 7 o‘rinni egallagan.

Dissertant ikki davlat o‘rtasida turizm sohasida mavjud muammolar va kamchiliklar, shuningdek, sohani rivojlantirish istiqbollari bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalarni ilgari surgan.

XULOSA

O‘zbekiston va Hindiston o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning shakllanish va rivojlanish tarixini tadqiq etish natijasida quyidagi ilmiy xulosalarga kelindi:

1. Ko‘p asrlik do‘stlik rishtalari bilan bog‘langan o‘zbek-hind aloqalari mustaqillik yillarida yangi mazmun bilan boyidi. Hindiston O‘zbekiston Respublikasining suverenitetini birinchilar qatorida tan olib, ikki davlat o‘rtasida o‘zaro ishonchga asoslangan amaliy diplomatik munosabatlar o‘rnatildi. Davlat va hukumat rahbarlari, parlament a‘zolarining o‘zaro tashriflari natijasida aloqalarning samarali tizimi yo‘lga qo‘yildi.

2. O‘zbekiston va Hindiston o‘rtasida imzolangan Strategik sherikchilik to‘g‘risidagi shartnoma barcha sohalardagi munosabatlarni keng miqyosda rivojlantirish uchun mustahkam huquqiy asos bo‘ldi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning ochiq pragmatik siyosati hamda 2018 va 2019-yillarda Hindistonga qilgan oliy darajadagi tashriflari davomida imzolangan shartnoma va bitimlar o‘zaro munosabatlarda yangi davrni boshlab berdi.

3. Tadqiqot O‘zbekiston va Hindiston o‘rtasidagi diplomatik munosabatlarda siyosiy kelishmovchiliklar yo‘qligini hamda mamlakatlar mintaqaviy va global siyosatining ko‘p jihatlari o‘xshash yoki bir xil ekanligini ko‘rsatdi. Buning tasdig‘ini O‘zbekiston Hindistonning BMT Xavfsizlik kengashining doimiy a‘zosi bo‘lishga intilishini qo‘llab-quvvatlagani misolida ko‘rish mumkin.

4. Ikki tomonlama hamkorlikning asosiy yo‘nalishlarida iqtisodiy munosabatlar ustuvor ahamiyat kasb etdi. Davlatlar o‘rtasidagi iqtisodiy hamkorlik, savdo-sotiq, qo‘shma korxonalar tashkil qilish, erkin iqtisodiy zonalarga sarmoyalar kiritish, qo‘shma loyihalarni amalga oshirish ko‘rinishida izchil rivojlanib bormoqda. Hududlar doirasida, xususan, Samarqand va Agra, Andijon va Gujarat, Farg‘ona va Haryana, Buxoro va Haydarobod, Buxoro va Telangana o‘rtasida istiqbolli iqtisodiy hamkorlik tizimi yo‘lga qo‘yildi. Bunday

⁴⁰ O‘zbekiston Osiyoning eng yirik hunarmadchilik festivalida bosh hamkor sifatida ishtirok etmoqda // <https://uzbektourism.uz/news/view?id=989>

aloqalar davlatlar o'rtasida samarali iqtisodiy hamkorlik hamda ikki va ko'p tomonlama munosabatlar o'rnatilishida muhim o'rin tutadi.

5. Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash O'zbekiston–Hindiston hamkorligidagi ustuvor maqsadlardan biri bo'lib kelmoqda. Ikki davlatning tashqi siyosatida Markaziy Osiyodagi tahdidlar, ya'ni xalqaro terrorizm, diniy ekstremizm, uyushgan jinoyatchilik, narkotrafik va ISHIDga qarshi kurashish, xususan, Afg'onistonda xavfsizlikni ta'minlash borasidagi maqsadlar mushtarak ekanligini ko'rish mumkin. O'zbekiston raisligida o'tkazilgan anjumanda Hindistonning SHHTga a'zo bo'lishi mintaqada xavfsizlikni ta'minlash borasida yangi imkoniyat va tashabbuslar yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Shuningdek, Markaziy Osiyo davlatlari, jumladan, O'zbekiston ishtirokida terrorizmga qarshi kurashishga qaratilgan qo'shma ishchi guruhlar tuzish va harbiy mashg'ulotlar o'tkazish tizimi yo'lga qo'yildi. Bu yo'nalishda 2019-yildan boshlab "Do'stlik" nomli o'zbek-hind harbiy mashg'ulotlari o'tkazib kelinmoqda.

6. O'zbekiston va Hindiston o'rtasidagi do'stona munosabatlarni mustahkamlashda madaniy aloqalar ham alohida o'ringa ega bo'ldi. Mazkur sohada doimiy asosda tashkil etilib kelgan musiqa, kino, teatr, tasviriy san'at va muzeylar yo'nalishidagi madaniy tadbirlar, fotoko'rgazmalar, shuningdek, adabiyot sohasidagi ilmiy aloqalar o'zbek va hind xalqlari o'rtasidagi do'stlik, o'zaro ishonch mustahkamlashga xizmat qilib kelmoqda. Xalqlarning madaniyatini bir-biriga yaqindan tanitishda, madaniy mushtaraklikni targ'ib qilishda "O'zbekiston–Hindiston" do'stlik jamiyati, "Hindiston–O'zbekiston" do'stlik jamiyati, Lal Bahadur Shastri nomidagi Hind madaniyat markazi kabi maskanlarning samarali faoliyati muhim rol o'ynagani aniqlandi.

7. Ikki davlatning gumanitar aloqalarida ilm-fan, ta'lim, sog'liqni saqlash, axborot texnologiyalari izchil rivojlanib bormoqda. Xususan, sog'liqni saqlash sohasida Hindiston bilan hamkorlikda farmatsevtika yo'nalishida mustaqillikning dastlabki yillaridan shu kunga qadar keng islohotlar amalga oshirildi, qolaversa, zamonaviy ko'p tarmoqli tibbiyot markazlari tashkil etildi. Tibbiyotdagi nazariy va amaliy bilimlarni o'rganish, davolash ishida xalq tabobatidan foydalanish tajribalarini o'zlashtirish maqsadida oliy o'quv yurtlari doirasida hamkorlik aloqalari yo'lga qo'yildi.

8. O'zbekiston va Hindiston o'rtasida ta'lim tizimi va kadrlar tayyorlash sohasida istiqbolli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ikki davlat oliy ta'lim muassasalari o'rtasida zamonaviy ilm va innovatsiyalarni o'rganishga qaratilgan ko'plab normativ-huquqiy hujjatlar imzolandi. Bu borada yetakchi oliy ta'lim muassasalaridan biri hisoblangan Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida Hindistonning oliy ta'lim muassasalari bilan qo'shma ta'lim dasturlari joriy etildi. Hindistonning Jomiya Milliya Islomiya, Javoharla'l Neru universitetlarida o'zbek tili kurslari tashkil etildi. O'zbek tilini o'rganish, madaniy-ma'rifiy aloqalarni va ilmiy izlanishlarni rivojlantirish maqsadida 2022-yilda Dehli universitetida TDSHU bilan hamkorlikda "O'zbek tili va hind-o'zbek ilmiy-madaniy aloqalari

markazi” tashkil etilgani ushbu yo‘nalishdagi hamkorlik samarali bo‘layotganidan dalolat bermoqda.

9. O‘zbekiston va Hindiston o‘rtasidagi gumanitar aloqalarning muhim yo‘nalishlaridan biri turizm sohasidagi hamkorlik hisoblanadi. Shu munosabat bilan, 2015-yilda “O‘zbekturizm” milliy kompaniyasi va Hindiston Sayyohlikni rivojlantirish korporatsiyasi o‘rtasida anglashuv Protokoli imzolandi. 2017-yildan ikki davlat o‘rtasida tashrif buyuruvchilar uchun elektron vizadan foydalanish joriy qilindi. 2018-yilda O‘zbekiston davlat rahbarining Hindistonga tashrifi doirasida “O‘zbekiston Respublikasi hukumati bilan Hindiston Respublikasi hukumati o‘rtasida turizm sohasida hamkorlik to‘g‘risida” bitim imzolandi. Ushbu normativ-huquqiy hujjat asosida ikki davlat o‘rtasidagi hamkorlik aloqalarini yanada rivojlantirish uchun ko‘plab chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Dissertatsiyada O‘zbekiston va Hindiston o‘rtasidagi aloqalarini mustahkamlash hamda yanada rivojlantirish uchun quyidagilar **taklif etildi**:

O‘zbekiston va Hindiston o‘rtasida savdo-iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish maqsadida O‘zbekiston savdo-sanoat palatasi bilan 4 mingga yaqin hind kompaniyalarini birlashtirgan Hindiston sanoat konfederatsiyasi o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqalarni yo‘lga qo‘yish hamda savdo-sotiq va turizm munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan aniq shartnomalar tuzish;

Hindistonning tibbiyotdagi boy ilmiy tajribasini, shuningdek, mamlakatimiz fuqarolari orasida hind tibbiy xizmatlariga talab ortib borayotganini inobatga olgan holda ikki davlat o‘rtasida teletibbiyot sohasida hamkorlikni yo‘lga qo‘yish;

ilm-fan sohasidagi hamkorlik doirasida O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar rivojlanish vazirligi hamda Hindiston fan va texnologiyalar vazirligi bilan ilmiy aloqalarni rivojlantirish, biotexnologiyalar, tibbiyot, farmatsevtika, qishloq xo‘jaligi, suv resurslarini boshqarish kabi sohalarda tajriba almashish maqsadida ilmiy stajirovkalarni yo‘lga qo‘yish, bu borada aniq manzilli yo‘l xaritalari ishlab chiqish;

milliy xavfsizlikni ta’minlashda mavjud xavf-xatarlarni aniqlash va bartaraf etish choralarini ko‘rish bo‘yicha Hindistonning Tashqi siyosat tadqiqot markazi (FPRC), Vivekananda Hindiston fondi (VIF) hamda Mudofaa tadqiqotlari va tahlillari instituti (IDSA) bilan O‘zbekistonning Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti hamda Markaziy Osiyo xalqaro instituti o‘rtasida hamkorlik aloqalari o‘rnatilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc/03/29.12.2022.Ss/Tar.21.02
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ ВОСТОКОВЕДЕНИЯ**

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ
ВОСТОКОВЕДЕНИЯ**

САЙФУЛЛАЕВ БЕХРУЗ ДИЛШОД ЎҒЛИ

**ИСТОРИЯ СТАНОВЛЕНИЯ И РАЗВИТИЯ ОТНОШЕНИЙ МЕЖДУ
УЗБЕКИСТАНОМ И ИНДИЕЙ (1991-2021 гг)**

07.00.05 – История международных отношений и внешней политики

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ
ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО ИСТОРИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ташкент – 2023

Тема диссертации доктора философии (PhD) по историческим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан за № В2022.4.PhD/Tar1281.

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном университете востоковедения.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекском, русском и английском (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.tashgiv.uz) и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель: **Сайфуллаев Дурбек Бахтиёрович**
доктор исторических наук, профессор

Официальные оппоненты: **Рахимов Мирзохид Акрамович**
доктор исторических наук, профессор
Найимов Отабек Мардонович
доктор философии (PhD) по политическим

Ведущая организация: **Национальный университет Узбекистана**

Защита диссертации состоится «___» _____ 2023 г. в ___ часов на заседании Научного совета DSc/03/29.12.2022.Ss/Tar.21.02 при Ташкентском государственном университете востоковедения. Адрес: 100047, г.Ташкент, ул. Шахрисабз, 16. Тел.: (99871) 233-34-241; факс: (998971) 233-52-24; e-mail: sharq_ilmiy@mail.ru.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного университета востоковедения (зарегистрирована под №___). Адрес: 100047, г.Ташкент, ул. Шахрисабз, 16. Тел.: (99871) 233-45-21.

Автореферат диссертации разослан “___” _____ 2023 года.
(реестр протокола рассылки №___ от «___» _____ 2023 года)

Н.А.Абдуллаев
Заместитель председателя
научного совета по присуждению
ученых степеней, д.п.н., доцент

О.И.Алимов
Ученый секретарь научного совета
по присуждению ученых степеней, доктор
философии (PhD) по политическим
наукам

Н.Э.Каримова
Председатель научного семинара при
научном совете по присуждению ученых степеней,
доктор исторических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Глубокие изменения, происходящие в современных международных отношениях, требуют осуществления дальновидной внешней политики, расширения и дальнейшего развития географии и масштабов международных связей с традиционными партнерами. Расширение имеющихся связей Узбекистана с Южной Азией, в частности, с Индией, налаживание взаимовыгодного сотрудничества в новых и перспективных направлениях, определение приоритетных направлений стратегии внешней политики, направленной на создание транспортно-логистических коридоров, которые будут связывать Узбекистан с другими регионами и дадут возможность для выхода на мировой рынок, являются в настоящее время актуальными.

Определение основной модели развития Индии, как одного из важных акторов в системе международных отношений и имеющая достаточно сильный политический, экономический и военный потенциал, является причиной повышенного внимания и интереса научно-исследовательских институтов во всем мире. С данной точки зрения, исследование процессов формирования и развития между Узбекистаном и Индией политических, торгово-экономических и культурно-гуманитарных отношений на основе ретроспективных и перспективных подходов становятся в последние годы объектом научного изучения.

Начиная с обретения независимости и до сегодняшнего дня, между Узбекистаном и Индией реализуются взаимовыгодное сотрудничество. «Сегодня Индия – это стремительно развивающаяся и все больше укрепляющая свои позиции в мировой экономике глобальное государство. За последние четыре года двусторонние отношения с этой страной поднялись на новый уровень»⁴¹. Развивающиеся отношения с такой мощной державой, как Индия, имеют очень важное значение в новом периоде, когда в мире происходят глобальные процессы и он вступает в эпоху «исторической трансформации». Это предоставит нашей стране возможность выйти на рынок Южной Азии с полутора миллиардным населением и поможет привлечь инвестиции, а также перенять опыт Индии, которая стремительно развивается в сферах науки, образования, медицины, сельского хозяйства и информационно-коммуникационных технологиях.

Настоящее диссертационное исследование в определенной степени служит выполнению задач, предусмотренных в Указах Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № УП-60 «О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы», от 11 сентября 2023 года №УП-158 «О стратегии «Узбекистан – 2030», от 19 мая 2017 года

⁴¹ Ўзбекистон ва Ҳиндистон муносабатларининг бугунги суръатини юқори баҳолаймиз. [Ўзбекистон Республикаси Президентининг расмий веб-сайти]: <https://president.uz/uz/lists/view/2055>. (18.12.2020).

№УП-5046 ««О мерах по дальнейшему совершенствованию межнациональных отношений и дружественных связей с зарубежными странами», постановлениях Президента от 30 июня 2017 года №ПП-3105 «Об организации деятельности Общественного совета по новейшей истории Узбекистана при Академии наук Республики Узбекистан», от 16 апреля 2020 года №ПП-4680 «О мерах по кардинальному совершенствованию системы подготовки кадров и повышения научного потенциала в области востоковедения», от 4 октября 2018 года №ПП-3958 «О мерах по дальнейшему расширению и укреплению стратегического партнерства между Республикой Узбекистан и Республикой Индия», а также выполнению задач, определенных в других нормативно-правовых актах в данной области.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий в республике. Настоящая диссертация выполнена в рамках приоритетного направления I. «Формирование системы инновационных идей и пути их реализации в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-просветительском развитии информатизированного общества и демократического государства».

